

COREL DRAW DASTURIDA GRIH NAQSH CHIZISH USULLARI

Bobomurodova Sojida Ablakulovna

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Jurayeva O'g'iloy Kengash qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10669626>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamon talabi asosida g'rih naqshlarini kompyuterning Corel Draw grafik dasturi yordamida hosil qilish va rang berish jarayoni bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Corel DRAW, Corel PHOTO-PAINT, veb-dizayn, Corel CAPTURE, kompyuter.

Corel DRAW - bu vektorli grafik dastur, ya'ni unda yaratilgan ob'ektlarni matematik formulalar bilan tavsiflash mumkin. Bu qanday bajariladi? Avvalo, bunday ob'ektlar mukammal darajada tahrir qilinadi. Odatda diskda juda ko'p joy egallamaydi. To'g'ri tayyorgarlik bilan ular yuqori sifatli bosib chiqarishga imkon beradi. Shuning uchun Corel Drawda logotiplar, bannerlar, belgilar ishlab chiqilgan. Masalan, Corel DRAW-da yaratilgan logotip rasm sifatiga putur etkazmasdan ham, kichik biznes kartochkada ham, yo'lning yuqori qismida ham joylashtirilishi mumkin. Dastur Kanadaning Corel kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Kompaniyaning bosh qarorgohi Ottavada joylashgan.

Corel - Kanadadagi eng yirik dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilardan biri. Kuchli shakllar bilan bir qatorda Corel DRAW reklama, kitob dizayni, mato rasmlari va boshqalarda keng qo'llaniladigan ajoyib vektorli rasmlarni yaratishi mumkin. Dastur aniq konstruksiyalar uchun juda qulay imkoniyatlarga ega, bu esa uni aniq o'lchovlar yoki nisbatlarda aniq diagramma va shakllarni chizish uchun ishlatishga imkon beradi. Masalan, mebel ishlab chiqarish uchun kontrplak blankalarini chizish uchun.

Corel DRAW veb-dizayn uchun ham keng qo'llaniladi: sayt maketlarini yaratishdan tugmachalar va navigatsiya va ekstruziya, shaffoflik, qobiq va soya kabi maxsus effektlardan foydalanish sizga realistik 3D moslamalarni yaratishga imkon beradi. Corel DRAW dasturi (ba'zilar uni shunchaki Corel, Coral yoki hatto Coral deb atashadi), bir tomondan soddaligi bilan, ikkinchidan, keng doiradagi vazifalari bilan ajralib turadi.

"Corel Draw" dan tashqari, unga vektorli grafik formatdagi ob'ektlarni yaratishni juda osonlashtiradigan foydali yordamchi dasturlar kiradi, masalan: Corel-TRACE - Corel Draw muharririda ularni keyinchalik qayta ishlash uchun rastri ob'ektlarni tezkor ravishda vektorli ob'ektlarga aylantirishga imkon beruvchi dastur;

Corel PHOTO-PAINT - raster tasvirlarni tahrirlash uchun dastur;

Corel CAPTURE - ekranda tanlangan ma'lum bir qismni olish uchun vosita;


Corel R.A.V.E. - animatsion ob'ektlarni shakllantirish dasturi. Corel shriftlar menejeri.

Ushbu bobda biz Corel Draw qanday ishlashi va uni eng yuqori samaradorlik bilan qanday qo'llashni o'rganamiz.


Corel Drawing so'nggi versiyasini yuklab olishimiz kerak bo'ladi.

Agar biz rasm, naqsh chizishni yoki tashrif qog'ozini, bannerlarni, afishalarni va boshqa vizual mahsulotlarni yaratishni rejalashtirmoqchi bo'lsak, Corel Drawdan ishonchli foydalanishimiz mumkin. Ushbu dastur bizga xohlagan narsamizni chizishga va bosib chiqarish uchun sxemani tayyorlashga yordam beradi.

1. Dasturni o'rnatish faylini dasturchining rasmiy veb-saytidan yuklab olinadi. Yangi boshlanuvchilar uchun bu dasturning sinov versiyasi bo'lishi mumkin.




2. Yuklab olish tugashi kutiladi, dasturni o'rnatish ustasi ko'rsatmalariga rioya qilib, kompyuterga o'rnatiladi.



3. O'rnatishdan so'ng biz maxsus Corel hisob qaydnomasini yaratishimiz kerak. Corel Draw-da klaviatura yorliqlari

1. Boshlash oynasida "Yaratish" tugmachasi bosiladi yoki Ctrl + N. tugmalar birikmasidan foydalaniladi. Hujjat uchun parametrlarni o'rnatiladi: nom, varaq yo'nalishi, piksel yoki metrik birliklarning o'lchami, sahifalar soni, o'lchamlari, rang profillari. OK bosiladi.


2. Biz har doim menyu parametrlari ostida varaq parametrlarini o'zgartirishimiz mumkin.



Biz Corel Draw grafik dasturida girix naqsh turini chizish bosqichlarini ko'rib chiqamiz. Bilamizki naqshlar uch turga bo'linadi, bular: islimiy, girih va murakkab naqshlar. Girih uslubidagi naqshlarimiz turli xil geometrik shakllarning o'zaro birlashuvidan o'zaro kesishuvidan hosil bo'ladigan chiroyli naqsh na'munalaridir. Bularni yaratish usullari judayam ko'p. Girih uslubidagi naqsh biroz e'tibor talab qiladigan vaqt va sinchkovlikni talab qiladigan naqsh turi hisoblanadi, shu sababdan e'tobor bilan ketma-ketlikda bajaramiz.


Girih uslubimizdagi naqshni oddiy kvadrat chizib olishdan boshlaymiz. Buning uchun uskunalaridan to'rtburchak shaklini tanlab, ixtiyoriy o'lchamlar qo'yiladi. Bizga kvadrat kerak bo'lgani uchun tomonlarini teng qilib belgilaymiz.

Kvadrat shaklini chizib olganimizdan so'ng chizgan kvadratimizni diogonallari bo'yicha ikki nuqtali to'g'ri chiziq uskunasi yordamida teng ikki qismga bo'lamiz va natijada teng to'rtta bir biriga teng bo'lgan kvadratlar hosil bo'ladi.




Keyingi qiladigan ishimiz anashu diogonallar tomonlarni kesishish natijasida hosil bo'lgan nuqtalarini birlashtirib navbatdagi kvadratni hosil qilamiz. Bunda ham bizga ikki nuqtali to'g'ri chiziq uskunasi kerak bo'ladi.


Markazdan o'lchab kvadratning o'lchamiga teng bo'lgan kvadrat ko'paytiramiz va uni 45 gradus qiyalikda joylashtiramiz va sakkiz qirrali yulduz shakli kelib chiqadi




Keyingi qiladigan ishimizni juda aniqlik bilan bajarishimiz kerak bo'ladi, ya'ni birinchi chizib olgan tashqi kvadrat uchlari ichki chizib olingan kvadratimizning qarama qarshi uchlari bilan birlashtiramiz va bu markazni bo'lgan chiziqda kesishadi. Bu ishni to'rt tomonda ham bajarib olamiz.




Bu chizmada bizga o'zaro kesishishdan hosil bo'lgan to'rtta nuqta muhim. Manashu nuqtalarni birlashtirib, yana kvadrat hosil qilamiz, bu kvadratning kattaligi tashqarisida turgan kvadrat kattaligidan kichik bo'ladi.




Avvalgi qilgan ishimizni bu kvadrat bilan ham takrorlaymiz, ya'ni kvadratdan nusxa olib uning markazidan 45 gradus qiyalikda chizib olamiz. Natijada katta sakkiz qirrali yulduzimiz ichida kichik sakkiz qirrali yulduzimiz hosil bo'ladi.




keyingi qiladigan ishimiz aylana shaklini tanlab, eng kichik kvadratimiz burchagi va uning tashqaridagi kvadrati uzunligidagi radius kattaligida aylana chizib olinadi va undan nusxa ko'paytirib, rasmda ko'rsatilganidek kvadratlarimiz burchaklariga joylashtiramiz va 45 gradus qiyalikda chizilgan kvadratimiz burchaklariga ham joylashtirib olamiz.




Aylanalarni yana ko'paytirib bu erda ichki chiziqlar o'zaro kesishgan joyni markaz qilib olgan holatda aylanalarni joylashtirib olamiz.




Aylanalarni chizib olganimizdan so'ng, har bitta aylana ichiga sakkiz qirrali yulduzchalarni hosil qilamiz. Bitta aylana ichiga yulduzni chizib qolgan aylana ichiga nusxa olib tashlaymiz. Corel Draw dasturining afzalligi ham shundaki ishimizni osonlashtirib vaqtimizni tejaydi.




Chizgan aylanalarimiz radiusi kattaligida aylananing markaziga chizib olamiz, lekin buni ichidagi sakkiz qirrali yulduzning radiusi boshqa bo'ladi. Buni hosil qilish uchun yon tomondagi chiziqlarning kesishuvidan hosil bo'lgan aylanalarning markazi va o'rtadagi aylana markaziga yordamchi chiziq o'tkazamiz, bu yordamchi chiziq bizga aylananing ichiga chiziladigan yulduz burchaklarini keltirib chiqaradi.



Markazdagi aylanaga chizilgan sakkiz qirrali yulduzimizning tomoni kattaligida to'rtburchaklar chizib chiqiladi va rasmdagi shakl kelib chiqadi.



Yordamchi chiziqlarni o'chirib tashlaymiz va shakllarni qalinlashtirib chiqqanimizdan keyin girix naqshi hosil bo'ladi



References:

1. B.Q. Xolmatov "Naqqoshlik". T. [Iqtisod moliya](#), 2007-yil.

2. B.Q. Xolmatov “Kompozitsiya” T.Iqtisod moliya, 2007-yil.103.K.M. G‘ulomov. “ Amaliy san’at”. T. Iqtisod moliya. 2008-yil.
3. Q.L.Jabborov “Naqsh elementlarini kompyuter texnologiyalari asosida tuzishni takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyasi, Samarqand- 2012-yil.
4. Абдуллаев Акбар Хикматович. Нравственное и эстетическое воспитание учеников через изобразительное искусство // Academy. 2021. №4 (67). URL: <https://Cyberleninka.Ru/Article/N/Nravstvennoe-i-esteticheskoe-vozpitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo> (Дата Обращения: 02.11.2023).
5. Абдуллаев А. Х. Ўзбекистонда чизмачилик ва чизма геометрия фанининг ривожланиш тарихи //взгляд в прошлое. – 2022. – Т. 5. – №. 3.
6. Abdullaev, A., & Bobomurodova, S. (2023). The main factors affecting of uzbekistan and central asian countries to the development of art. *Science And Innovation*, 2(C3), 64-66.
7. Abdullayev, A. H., & Bobomurodova, S. A. (2022). Bo‘lajak tasviriy va amaliy san’at o‘qituvchilarining kasbiy va malakaviy tayyorgarliklarini takomillashtirish. *Scientific Progress*, 3(3), 908-910.
8. Abdullaev, A., Bobomurodova, S., & Juraeva, O. (2024). The advantages of an innovative approach to teaching and development methods of the artistic and technical skills of students in visual arts classes. *Science And Innovation*, 3(B1), 335-339.
9. Choriyev S. N. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini va rahbar imidjini yaratish //Innovative development in educational activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 222-225.
10. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o‘ziga xosligi //Innovative development in educational activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 114-118.
11. Bobonazarov S. Kompozitsiya mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhim ekanligi //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B6. – С. 11-14.
12. Bobonazarov S. U., Jalolov S. C. Etnomadiy fenomenon sifatida nuza san’atlari //Asian journal of multidimensional research (AJMR) [https://www. Tarj. In](https://www.tarj.in).
13. Шавдилов, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
14. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. Theoretical principles of the formation of study competencies regarding art literacy in students //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.
15. Shovdirov, S. B.Boymetov. Methods of organizing practical and theoretical classes for students in the process of teaching fine arts international journal on integrated education.
16. Guljamol M. Semantics of patterns in carvings in traditional applied art and their symbolic and expressive features //Journal of academic research and trends in educational sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 191-197.
17. Choriyevich J. S. The Role of composition in increasing the spatial imagination of students and students //Central asian journal of arts and design. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 15-17.
18. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.

19. Шавдилов С. А. Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 6. – С. 15-21.
20. SAN'AT S. A. S. T., TA'LIMIDA O. Q. O. Q. U. V., TALABLARI K. S. T. T. P. SAI. 2023.№ Special Issue 13 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-san-at-ta-limida-o-quvchilarning-o-quv-kompetensiyalarini-shakllantirish-tizimini-takomillashtirishning-pedagogik> (дата обращения: 03.12. 2023).
21. Shovdirov S. A. TEACHING STUDENTS TO LOGICAL AND ABSTRACT THINKING IN THE FORMATION OF COMPETENCES ABOUT PICTURE LITERACY //JOURNAL OF ARTS AND HUMANITIES. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 40-44.
22. Shovdirov S., Hikmatova M. O 'QUVCHI-YOSHLARNING MA'NAVIY OLAMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATI ASARI NAMUNALARINING AHAMIYATI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. – 2023. – Т. 1. – №. 01.
23. Shovdirov S. A. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA O 'QUVCHILARNING O 'QUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TALABLARI //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 13. – С. 527-533.
24. Shovdirov S. TASVIRIY SAVODXONLIKKA OID O 'QUV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA O 'QUVCHILARNI MANTIQUIY VA ABSTRAKT FIKRLASHGA O 'RGATISH //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 193-196.
25. Sulaymonov A., Shovdirov S. UMUMINSONIY VA MILLIY BADIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TASVIRIY SAN'AT TA'LIMI SIFATINI OSHIRISH //Inter education & global study. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 8-11.